

## KORXONA RIVOJLANISHIDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

*Boboraxmatova Shohsanam Ibodullo qizi*

*Termiz davlat univerversiteti*

*Iqtisodiyot yo'nalishi magistratanti*

[shohsanamboboraxmatova@gmail.com](mailto:shohsanamboboraxmatova@gmail.com)

+99-899-096-91-33

**Annotatsiya:** Ushbu maqola korxonalar rivojlanishida soliq imtiyozlarining ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada soliq imtiyozlarining tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi roli ko'rib chiqiladi. O'zbekiston misolida, "Yoshlar tadbirkorligi" dasturi doirasida taqdim etilgan soliq imtiyozlari orqali yosh tadbirkorlarning biznes faoliyatini qanday rivojlantirishi va innovatsion g'oyalarni amalga oshirish imkoniyatlari tahlil etiladi. Maqola, shuningdek, soliq siyosatining samarali rejasi va davlat yordamining ahamiyatini yoritadi. Natijada, soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish orqali korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** Soliq imtiyozlari, korxonalar rivojlanishi, investitsiya, iqtisodiy o'sish, mahalliy iqtisodiyot, soliq siyosati, innovatsiyalar, raqobatbardoshlik, soliq rejasi, davlat yordam.

**Annotation:** This article analyzes the importance of tax incentives in the development of enterprises. It examines the role of tax incentives in stimulating entrepreneurial activity, attracting investments, and ensuring economic growth. Using Uzbekistan as an example, the article explores how tax incentives provided under the "Youth Entrepreneurship" program contribute to the development of young entrepreneurs' business activities and the implementation of innovative ideas. Additionally, the article highlights the significance of an effective tax policy and state support. As a result, it demonstrates how effective utilization of tax incentives can enhance the competitiveness of enterprises and positively impact the local economy.

**Keywords:** Tax incentives, enterprise development, investment Economic growth, local economy, tax policy, innovations, competitiveness, tax plan, state support

**Аннотация:** В данной статье анализируется важность налоговых льгот в развитии предприятий. Рассматривается роль налоговых льгот в

стимулировании предпринимательской деятельности, привлечении инвестиций и обеспечении экономического роста. На примере Узбекистана статья исследует, как налоговые льготы, предоставленные в рамках программы "Молодежное предпринимательство", способствуют развитию бизнес-деятельности молодых предпринимателей и реализации инновационных идей. Кроме того, в статье подчеркивается значение эффективной налоговой политики и государственной поддержки. В результате показывается, как эффективное использование налоговых льгот может повысить конкурентоспособность предприятий и оказать положительное влияние на местную экономику.

**Ключевые слова:** налоговые льготы, развитие, предприятий инвестиции экономический рост, местная экономика, налоговая политика, инновации конкурентоспособность, налоговый план, Государственная поддержка.

O‘zbekiston Respublikasida soliq tizimi quyidagi asosiy soliq turlaridan iborat:

- daromad solig‘i
- qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS)
- yer solig‘i
- mol-mulk solig‘i
- ijtimoiy soliq
- yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq
- foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘i
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
- aksiz solig‘i
- foyda solig‘i

Soliqlar davlat byudjetining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi va iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larni ta‘minlaydi. Soliq imtiyozlari O‘zbekiston hukumati korxonalarini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish maqsadida turli soliq imtiyozlarini taqdim etadi. Bu imtiyozlar qatoriga:

- Soliq stavkalarining pasayishi;
- Soliq to‘lovlaridan ozod qilish;
- Yangi texnologiyalarni joriy etish uchun grantlar va subsidiyalar;

Korxonalar rivojlanishida soliq imtiyozlaridan foydalanish korxonaning iqtisodiy holati va faoliyat natijalariga sezilarli ta‘sir o‘tkazibgina qolmay, davlatning soliq tizimining tadbirkorlarga yaratgan sharoitlari ko‘lami kengayishi uchun ham muhim dastak vazifasini bajaradi. Soliq imtiyozlari korxonalarini yangi investitsiyalar kiritishga undaydi, bu esa yangi ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy o‘sishni ta‘minlaydi.

Misol uchun, ishlab chiqarish sohasida yangi texnologiyalarni joriy etish uchun beriladigan imtiyozlar korxonalariga raqobatbardosh bo'lish imkonini beradi. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga ham soliq yuklamalaridan berilgan yengilliklar orqali erishish mumkin. Soliq imtiyozlari orqali korxonalar o'z daromadlarini oshirishga erishadilar, bu esa ularning barqarorligini ta'minlaydi.

Barqaror faoliyat esa iqtisodiyotning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Davlat byudjetini to'ldirish uchun xizmat qiladigan to'lovlardan ma'lum qismini to'lamaslik imkonini berish tadbirkorning ijtimoiy mas'uliyatini oshirib, ularda xalqparvarlik ruhiyatini ham yuksalish holatlariga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida davlat byudjeti uchun yanada samarali naf keltiradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Korxonalar soliq imtiyozlaridan foydalanib, ijtimoiy loyihalarga ham investitsiya kiritishi mumkin. Bu orqali ular mahalliy jamoalarga yordam berish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunga teoretik asoslar mavjud.

Iqtisodiyot nazariyalarida soliq imtiyozlari iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi vosita sifatida ko'riladi. Keynesian iqtisodiyot nazariyasi buni ta'kidlaydi, chunki davlat xarajatlari va soliqlarni boshqarish orqali iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va boshqa ilmiy tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar soliq imtiyozlarining korxonalar rivojlanishiga ta'sirini o'rganadi. Bunday tadqiqotlar natijalari ko'pincha soliq imtiyozlarining samaradorligini ko'rsatadi.

Soliqlar bo'yicha imtiyozlar soliq solishdan bo'shagan mablag'larni aniq maqsadlarga yo'naltirishi sharti bilan berilishi mumkin. Bunday mablag'lar maqsadli ishlatilmagan taqdirda maqsadsiz ishlatilgan mablag'lar summasi belgilangan tartibda penya hisoblangan holda budjetga undirilishi lozim. Soliqlar bo'yicha imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo'shagan va mazkur imtiyozlarning amal qilish davrida foydalanilmagan mablag'lar summasi berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati tugaganidan so'ng bir yil davomida ularni taqdim etishda belgilangan maqsadlar uchun yo'naltirilishi mumkin. Bunda belgilangan muddatda foydalanilmagan mablag'lar budjetga o'tkazilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 apreldagi "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5088 sonli qaroriga muvofiq, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini hamda Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etiladi. Ushbu Sanoat zonalarida «startaplar» tashkil etish, yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlashi va yuritishlari, shu jumladan,

innovasion mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish va natijalarini tijoratlashtirish, yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiya aloqalarini o'rnatish uchun barcha sharoitlar ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 apreldagi "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6208 sonli qaroriga muvofiq, joriy yil 1 maydan 2023 yil 1 yanvarga qadar ish beruvchilarga ular tomonidan 25 yoshdan oshmagan xodimlari uchun to'lagan ijtimoiy soliq summasi (12 foiz) Davlat byudjetidan to'liq qaytarib beriladi.<sup>1</sup> Bunda, ijtimoiy soliq summasi yosh xodimlar olti oy davomida uzluksiz faoliyat olib borganda yettinchi oydan boshlab qaytariladi.

Ayrim soliqlar bo'yicha soliq imtiyozlari, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i solinadigan mahsulotlar ishlab chiqarilganda va (yoki) realizatsiya qilinganda aksiz solig'i yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan va foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'idan tashqari, ushbu moddaning oltinchi qismi qoidalarini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan belgilangan soliq stavkasini kamaytirish, lekin ko'pi bilan 50foizga kamaytirish tarzida va ko'pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar, shu jumladan tovarlar O'zbekiston Respublikasining hududiga olib kirilishida (importida) soliq solishdan bo'shagan mablag'larni aniq maqsadlarga yo'naltirish sharti bilan, berilishi mumkin emas.<sup>2</sup>

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning ichidagi imtiyozlar korxonalar rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ularning samarali foydalanilishi nafaqat korxonaning o'ziga, balki mamlakat iqtisodiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, davlat va biznes hamkorligi o'zaro manfaatli va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi
2. O'lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. - T.: «Sharq» nashriyot-matbaa akstiyadorlik [kompaniyasi Bosh tahririyati](#), 2006. - 480 b.
3. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). - T., «Media» [nashriyoti](#), 2013. - 794 b.

<sup>1</sup> [www.finlit.uz](http://www.finlit.uz) 2025 Moliyaviy savodxonlik bo'yicha axborot-ta'lim veb-sayti

<sup>2</sup> (75-moddaning to'qqizinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 18-fevraldagi O'RQ-1031-sonli [Qonuni](#) tahririda — *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 19.02.2025-y., 03/25/1031/0160-son)

4. [www.ceep.uz](http://www.ceep.uz) - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.
5. Razzoqov A., Toshmatov Sh., Urmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. -T. Iqtisod-moliya, 2007, 320 b